

6. McGinn JT, Jr, Usman S, Lapierre H, Pothula VR, Mesana TG, Ruel M. Minimal invaziv koroner arter baypas greftleme: 450 ardışık hastada çift merkez deneyimi // Dolaşım . - 2009. - Cilt 20 (11 Ek). - S78-84.
7. Di Giammarco G., Rabozz R. Transit zamanlı akım ölçümü koroner arter baypas greftleme geçiren hastalarda greft açıklığını ve klinik sonuçları iyileştirebilir mi? //Interact CardiovascThorac Surg. – 2010. – Cilt 11, N5. – S. 635–640.
8. Une D, Lapierre H, Sohmer B, Rai V, Ruel M. Minimal invaziv koroner arter baypas greftleme işlemi güvenli bir şekilde başlatılabilir ve uygulanabilir mi?: bir öğrenme eğrisi analizi // Innovations (Phila).- 2013. - Cilt 8(6):- S.403–409 .
9. Lapierre H, Chan V, Sohmer B, Mesana TG, Ruel M. Küçük torakotomi ile minimal invaziv koroner arter baypas greftleme ve pompasız greftleme: vaka eşleştirilmiş bir çalışma // Eur J Cardiothorac Surg. - 2011. - Cilt 40 (4). – S.804–808.
10. Ruel M, Shariff MA, Lapierre H. Minimal invaziv koroner arter baypas greftleme anjiyografik açıklık çalışmasının sonuçları // J.Thorac. Cardiovasc. Surg . – 2014. – Cilt 147 (1). – S.203-208 .
11. Rodriguez M, Ruel M. Minimal İnvaziv Çok Damarlı Koroner Cerrahi ve Hibrit Koroner Revaskülarizasyon: Rutin Olarak Daha Az İnvaziv Koroner Cerrahiye Ulaşabilir miyiz? Methodist Debakey //Cardiovasc J. -2016. - Cilt 12 (1). – S.14-19 .

MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTITSİYALAR JALB ETISHDA BANKLARNING RO’LI

Shermamatova Farangiz Marat qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

“Bank ishi” yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etishda tijorat banklarining roli va ahamiyati yoritib berilgan. maqolada investitsiyalarni tasniflari va shakllari haqida ham alohida tushunchalar berilgan. shuningdek, investitsiya muhiti va uni yaxshilash omillari haqida tavsiya va xulosalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *investitsiya, investitsiya muhiti, xorijiy investitsiya, investitsiyaviy jozibadorlik, bank, bank krediti, moliya bozori, fond bozori*

Аннотация: В данной статье освещена роль и значение коммерческих банков в привлечении иностранных инвестиций в экономику страны. В статье также даются конкретные сведения о классификациях и формах инвестиций. а также рекомендации и выводы об инвестиционной среде и факторах ее улучшения.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная среда, иностранные инвестиции, инвестиционная привлекательность, банк, банковский кредит, финансовый рынок, фондовый рынок.

Annotation: This article highlights the role and importance of commercial banks in attracting foreign investment into the country's economy. The article also provides specific information on the classifications and forms of investment, as well as recommendations and conclusions on the investment environment and factors for its improvement.

Key words: investments, investment environment, foreign investments, investment attractiveness, bank, bank loan, financial market, stock market.

Kirish

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular doimiy ravishda iqtisodiyotga investitsiyalar kiritib borishni rag'batlantirishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini oshirishning hamda raqobatbardoshligini ta'minlashning eng muhim omili etib qo'rsatilmoqda.

Har bir mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirish shart-sharoitlaridan biri – bu mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etish bo'lib hisoblanib kelmoqda. Investitsiyalarni iqtisodiyotga kiritish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi tovarlar va xizmatlar yaratish, eng asosiysi aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”.

Adabiyotlar sharhi. G.Podshivalenko va N.Kiseleva tahriri ostida tayyorlangan o'quv qo'llanmada “Investitsiyalash to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishda eng keng tarqalgan mezonlardan biri bu – makrodarajadagi investitsion muhit va investitsiyalash ob'ektining investitsiyaviy jozibadorligini baholash

hisoblanadi”¹ deb ta’kidlanadi. Bundan tashqari, O‘zbekistonlik va boshqa ko‘plab xorijiy olimlarning “investitsiya muhiti” va “investitsiyaviy jozibadorlik” to‘g‘risidagi ilmiy izlanishlarini o‘rganar ekanmiz, ularning ilmiy ishlarda ushbu kategoriyalarning yagona ta’rifi yo‘qligiga duch kelamiz. Ayrim adabiyotlarda ba’zi mualliflar ushbu ikki atamani sinonim so‘zlar sifatida ishlatadilar. Ushbu masala bo‘yicha zamonaviy qarashlarning tahlili “investitsiya muhiti”ning juda murakkab va ko‘p qirrali tushuncha ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, “investitsiya muhiti”ga nisbatan turli sifat tavsiflarini qo‘llash holati ham kuzatiladi. Shu jumladan, B.A.Oxunov maqbul investitsiya muhiti tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Maqbul investitsiya muhiti – investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun davlat tomonidan mamlakat va investorlar xavf-xatarlari hamda manfaatlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shartsharoitlar tizimidir”²

Investitsiya atamasi lotincha “investio” – o‘rash, so‘zidan olingan bo‘lib, - iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish(qo‘yish) dir.³

Metodlar va materiallar. Investitsiyalarni olimlar alohida belgilariga qarab bir qancha turlarini tasniflab chiqishgan. Masalan, investitsiyalarni qo‘yilma ob’ektlariga ko‘ra: real investitsiyalar va moliyaviy investitsiyalarga tasniflanadi.

Investitsiyalarni investitsiyalashda ishtirok etish xarakteriga ko‘ra: bevosita hamda bilvosita investitsiyalarga ajratiladi.

Investitsiyalash davriga ko‘ra: uzoq muddatli investitsiyalar va qisqa muddatli investitsiyalarga ajratiladi.

Mulkchilik shakliga ko‘ra 4 shaklga ajratiladi: xususiy investitsiyalar, xorijiy investitsiyalari, davlat investitsiyalari, aralash investitsiyalar.

Hududiy belgisiga ko‘ra 2 guruhga ajratiladi: tashqi investitsiyalar va ichki investitsiyalar.

Investitsiyalarni kiritish qaysi turda yoki shaklda bo‘lmasin, eng asosiysi mamlakat yoki korxonaning iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini oshirishga asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Investitsiya orqali korxonalarda kapital manbasining jamqarilishiga, natijada esa mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengayishiga va iqtisodiy o‘shishga erishiladi.

¹ Инвестиционная деятельность: учебное пособие / Н.В. Киселева, Т.В. Боровикова, Г.В. Захарова и др.; под ред. Г.П. Подшиваленко и Н.В. Киселевой. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2006. – 432 с.

² Oxunov B.A. O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shishi sharoitida maqbul investitsiya muhitini shakllantirish (Farg‘ona vodiysi viloyatlari misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2010.

³ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.T.:”O‘zME” davlat ilmiy nashriyoti. 2002, 4-tom, 145-B

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini moliyaviy ta‘minlash tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tijorat banklari; bankdan tashqari kredit tashkilotlari (kredit uyushmalari, lombardlar, mikrokredit tashkilotlari);
- budjetdan tashqari jamg‘armalar;
- lizing kompaniyalari;
- xalqaro moliya institutlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy banklar;
- donor tashkilotlar, homiylik tashkilotlari;
- sug‘urta kompaniyalari;
- konsalting firmalari; injiniring kompaniyalari; axborot-maslahat markazi;
- auditorlik firmalari, huquqiy maslahatxonalar, reklama agentliklari, savdo-vositachilik tuzilmalari, birjalar va boshqalar.

Ma‘lumki, jamiyat faoliyatining asosiy va muhim jihati – bu ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslarni ishlatiladi va natijada mahsulotlar va xizmatlardan iborat ne‘matlar yaratiladi. Ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlash moddiy mablag‘ bilan bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Va bugungi kunda ushbu masalaning yechimini topish uchun biz kreditga murojaat etamiz. Demak, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun bank kreditlarining ahamiyati yuqori bo‘lib hisoblanar ekan.

Tijorat banklari investitsiya loyihalarini kreditlashda faol ishtirok etadilar. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit munosabatlarining sub‘ektlari va ob‘ektlariga, foiz stavkasiga va kreditning harakat doirasiga qarab kreditning quyidagi shakllari qo‘llaniladi: davlat krediti; bank krediti; iste‘mol krediti; tijorat krediti va xalqaro kredit.

O‘zbekistonda ham investitsiya faoliyati taraqqiyotida bank kreditlarining ahamiyati oshib bormoqda. Iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va xizmatlar ko‘rsatish doirasini kengaytirish, aholining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir.⁴

Banklar tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy usuli bu kreditlash bo‘lib hisoblanadi. Banklar tomonidan beriladigan kreditlarni quyidagi tamoyillar orqali mazmunini ifodalash mumkin:

1. Kreditning qaytarib berish tamoyili. Bu tijorat banklari tomonidan ajratiladigan mablag‘ bankka o‘z vaqtida qaytarilishi lozim, mablag‘larni qaytarishning iqtisodiy asosi sifatida mablag‘larning uzluksiz doimiy ravishda aylanishi hisoblanadi.

⁴ B.Mamatov, D.Xo‘jamqulov, O.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik., Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2014

2. Kreditning muddatliligi. Ushbu tamoyil kredit beruvchidan olingan kreditni o‘z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya’ni kreditning qanday va qancha muddatga berilganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu tamoyil qarzдор uchun qulay bo‘lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko‘rsatilgan ma’lum muddatda kreditning qaytarilishi zarurligini bildiradi. Agar kreditor qarzni o‘z vaqtida foizi bilan qaytarib olsa, uni egasiga vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Kreditning ta’minlanganligi. Ushbu tamoyil kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zahiralar, ko‘chmas mulk, ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan xarakterlanadi. Bu o‘z vaqtida kreditning o‘z muddatida qaytarilishini kafolatlaydi.

4. Kreditning to‘lovlilik tamoyili. Ushbu tamoyil aylanma fondlarning doiraviy aylanishini, keqaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta’minlovchi to‘lov resurslari summasini avanslashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Ushbu tamoyilga asosan investor korxonalar foydalanilgan qarz mablag‘lari uchun kreditorga foiz shaklida to‘lovlarni o‘tkazadilar.

5. Kreditning maqsadliligi. Ushbu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlaraniq bir maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Kreditning qanday maqsadga yo‘naltirilganligi, aniq biror ob’ektga maqsadli yo‘naltirilganligi korxona bilan bank o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko‘rsatilgan bo‘ladi. Kreditor korxona olgan kreditini faqatgina kredit shartnomasida ko‘rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak bo‘ladi.

Ushbu tamoyillar asosida kredit berilishi kreditning o‘z vaqtida qaytarilish imkonini beradi. Tijorat banklari tomonidan investitsiya kiritish bugungi kunda asosan bank kredilari shaklida amalga oshirilayapti. Lekin jahon amaliyotida bank investitsiyalari tushunchasi ham keng qo‘llaniladi. Bank investitsiyalari – bu korxonalarga banklar tomonidan investitsiya kiritish bo‘lib hisoblanadi. Bunda bank tomonidan korxonada ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun beriladigan mablag‘ kredit tartibida emas, balki investitsiya tartibida kiritiladi. Va ushbu mablag‘larni kiritish investitsiya kiritish shartlari va tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar. Bu yo‘lda moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish, ilg‘or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini ravnaq toptirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Sarmoyadorlar uchun keng va qulay sharoitlar yaratib berilyapti. Bu yo‘ldagi birinchi qadam albatta valyuta bozorini erkinlashtirib borilayotgani hisoblanadi. Aynan mazkur omillar tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyati

samaradorligini oshirish, institutsional asoslarini takomillashtirishga turtki bo‘lyapti. Shu bilan birga O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: – arzon va malakali ishchi kuchining mavjudligi; – respublikamizning tabiiy-iqtisodiy resurslarga boy ekanligi; – mamlakatimiz tabiiy-iqlim sharoitlarining yirik miqdorda qishloq xo‘jaligi xom ashyosi ishlab chiqarish imkoniyatiga egaligi; – milliy bozorning istiqbolli ekanligi; – mamlakatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning mavjudligi; – qulay me‘yoriy-huquqiy bazaning shakllanganligi va h.k.⁵

Ushbu omillar investitsiyalarni jalb etishga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘lib hisoblanadi. Banklarning investitsiyalarni jalb etishdagi faolligini oshirish uchun ham bir qancha qulay imkoniyatlar yaratilgan. Zero, har qanday islohot natijasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qilishi darkor. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Odamlarimiz yetarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar va ish joylarini ko‘paytirishimiz zarur. Bu g‘oyat dolzarb ishlarni o‘zimiz qilmasak, hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi”. Tijorat banklari esa aynan mana shunday muhim jarayonlarning eng faol va uzluksiz ishtirokchisiga aylanishi bugun har qachongidan ham dolzarbdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, kelgusida ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi texnika va texnologiyalar orqali mahsulot va xizmatlar yaratish tizimini kengaytirish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish ko‘lamini oshirish, chetga tovarlarni eksport qilish imkoniyatini oshirishimiz uchun bank investitsiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Va bank investitsiyalarini korxonalarga kiritish orqali korxonada ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda bank ham o‘z nazoratiga va mas’ulligiga ega bo‘ladi.

Shunday ekan, mamlakatimizda investitsiya siyosatini amalga oshirishda bank investitsiyalaridan foydalanish va ularni amaliyotga qo‘llashni kiritish masalasini taklif etamiz. Va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlanishiga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Инвестиционная деятельность: учебное пособие / Н.В. Киселева, Т.В. Боровикова, Г.В. Захарова и др.; под ред. Г.П. Подшиваленко и Н.В. Киселевой. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2006. –432 с.

2. Oxunov B.A. O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi sharoitida

⁵ Тухлиев Н., Хақбердиев Қ., Эрмаматов Ш., Холматов Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. - Т: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006. - 233-б

maqbul investitsiya muhitini shakllantirish (Farg‘ona vodiysi viloyatlari misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2010.

3.O‘zbekiston Milliy Enseklopediyasi.T.:”O‘zME” davlat ilmiy nashriyoti. 2002, 4-tom, 145-B

4.B.Mamatov, D.Xo‘jamqulov, O.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik., Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2014

5.Tuxliev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. - 233-b

6. Музаффарова, К. З. (2022). Қашқадарё вилоят иқтисодиётига хорижий инвестициялар жалб этиш омиллари. IN. In *international conferences* (Vol. 1, No. 18, pp. 131-134).

7. Muzaffarova, K., & Abdukarimov, K. (2022). Factors influencing the formation of the investment environment in the regions. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(5), 278-28.

8. Muzaffarova, K. (2021). Қашқадарё вилоятининг инвестицион салоҳияти асосида хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг минтақавий жиҳатлари. *Архив научных исследований*.

9. Salyaevich, J. Q., & Pardaev, O. C. (2021). Digital Transformation: The Role of a Digital Platform based on Business Model. *Middle European Scientific Bulletin*, 10, 280-284.

10. Normamatov, I. B. (2022). Ways to ensure continuation of payments in the interbank payment system. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1162-1167.

PREVALENCE, EARLY DETECTION AND PREVENTION OF ARRHYTHMIAS

Uktamova Rukhsora Utkirjon kizi

Bukhara State Medical Institute, Named Abu Ali ibn Sino

Republic of Uzbekistan, Bukhara

Abstract: Heart rhythm disturbances are called arrhythmias. In medicine, there are two types of this phenomenon: a separate disease and those that occur in healthy people. In fact, the heart beats more than 100,000 times in 24 hours. The word arrhythmia comes from the Greek word aritmos ("a" - no, "rhythmos" -